



THE CONTRIBUTION OF ABU BAKR KALOBODI TO THE SCIENCE OF HADITH

Sarvar Mukhammadiyev

Independent Researcher

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Abu Bakr Kalobodiy, Hadith science, Sufism, *Bahr al-Fawa'id*, Islamic scholarship, Hadith interpretation, Islamic teachings, Ibn Hajar al-Asqalani, Abdurauf Minovi, Hadith memorization, Islamic scholars

Received: 15.02.25

Accepted: 17.02.25

Published: 19.02.25

Abstract: The contribution of Abu Bakr Kalobodiy to the science of Hadith is significant, particularly in the context of his work in preserving the authenticity and purity of Islamic teachings. His most notable contribution is his approach to Hadith, which combined both exoteric and esoteric interpretations, reflecting his deep involvement in both Sufism and Hadith studies. The key work that demonstrates his expertise is *Bahr al-Fawa'id fi Ma'onil Akhbar* ("The Ocean of Benefits in the Meanings of Narrations"), where he collected and provided interpretations for a vast array of Hadiths. Abu Bakr Kalobodiy, who memorized over one hundred thousand Hadiths, became well-known for his profound scholarship in Hadith and his efforts to establish the correct understanding of the sayings of the Prophet Muhammad (PBUH). His work was later referenced by major scholars such as Ibn Hajar al-Asqalani and Abdurauf Minovi, proving his lasting impact on Hadith studies. Through his writings and interpretations, Kalobodiy played a crucial role in shaping the understanding of Hadith in the Islamic world, establishing principles that scholars continue to follow today.

ABU BAKR KALOBODIYNING HADIS ILMIGA QO'SHGAN HISSASI

Sarvar Muxammadiyev

mustaqil tadqiqotchi

Farg'ona Davlat Universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Abu Bakr Kalobodiy, hadis ilmi, tasavvuf, *Bahr al-Fawa'id*, islomiy ilmi-fan, hadis sharhi, islomiy ta'limotlar, Ibn Hajar al-Asqalaniy, Abdurauf Minovi, hadisni yoddan bilish, islom olimlari

Annotatsiya: Abu Bakr Kalobodiyning hadis ilmiga qoʻshgan hissasi juda katta boʻlib, ayniqsa uning islomiy ta'limotlarining toʻgʻriligini va sofliğini saqlashdagi ishlari bilan bogʻliqdir. Uning eng katta hissasi hadisga boʻlgan yondashuvini koʻrsatadi, bu esa tashqi va ichki maʼnolarni birlashtirib, tasavvuf va hadis ilmiga chuqur aloqadorligini aks ettiradi. Uning eng muhim asaridan biri *Bahr al-Fawa'id fi Ma'onil Akhbar* ("Xabarlarining Ma'nolaridagi Foydalar Ummoni") boʻlib, unda hadislarning turli ma'nolari va sharhlari jamlangan. Abu Bakr Kalobodiy yuz mingdan ortiq hadisni yoddan bilgan, va shu orqali hadis ilmi boʻyicha yetuk mutaxassis sifatida tanilgan. Uning asarlari keyinchalik Ibn Hajar al-Asqalaniy va Abdurauf Minovi kabi yirik olimlar tomonidan iqtibos keltirilgan. Kalobodiyning hadislar va ularning sharhlari orqali islom ilmlarini chuqurroq tushunishga qoʻshgan hissasi bugungi kunda ham davom etmoqda va bu ilmiy anʼanalar hozirgi olimlar tomonidan ham davom ettirilmoqda.

ВКЛАД АБУ БАКРА КАЛОБАДИ В НАУКУ ХАДИСОВ

Сарвар Мухаммадиев

Независимый исследователь

Ферганского государственного университета

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Абу Бакр Калободий, наука хадисов, суфизм, *Bahr al-Fawa'id*, исламская ученость, толкование хадисов, исламские учения, Ибн Хаджар аль-Аскаляни, Абдурауф Минови, запоминание хадисов, исламские ученые

Аннотация: Вклад Абу Бакра Калободия в науку хадисов имеет большое значение, особенно в контексте его работы по сохранению подлинности и чистоты исламских учений. Его главный вклад заключается в подходе к хадисам, который сочетал как экзотерическое, так и эзотерическое толкование, отражая его глубокое вовлечение в как суфизм, так и в науку хадисов. Его ключевая работа, демонстрирующая его знания, — *Bahr al-Fawa'id fi Ma'onil Akhbar* ("Океан полезных знаний о значениях хадисов"), в которой он собрал и предложил толкования для множества хадисов. Абу Бакр Калободий, который запомнил более ста тысяч хадисов, стал известен своей глубокой ученостью в области хадисов и его усилиями в

установлении правильного понимания слов Пророка Мухаммада (мир ему). Его работы позже были процитированы такими великими учеными, как Ибн Хаджар аль-Аскаляни и Абдурауф Минови, что свидетельствует о его долговечном влиянии на науку хадисов. Через свои труды и толкования Калободий сыграл ключевую роль в формировании понимания хадисов в исламском мире, установив принципы, которые ученые продолжают использовать и по сей день.

Kirish

Abu Bakr Kalobodiy haqida soʻz borganda albatta uning “at-Ta’arruf” asari birinchilardan boʻlib tilga olinadi. Chunki, oʻrta asrning eng katta muammolaridan biri tasavvuf ta’limotining sofligini saqlash uning sof e’tiqoddagi ta’limot, ahli sunna va-l-jamoa yoʻlida ekanini koʻrasatib berishdan iborat edi. Bu yoʻnalishda Abu Bakr Kalobodiy, Abu Homid Gʻazzoliy, Hujviriyy oʻziga xos asarlari orqali buni asoslab berishdi. Tasavvuf tarixi juda uzoq, ayni paytda nihoyatda murakkab bir tarixdir. Paygʻambar (s.a.v.) davrida barcha islom ilmlari mushtarak boʻlib, fiqh, kalom, hadis, tasavvuf deya ajratishlar boʻlmagan.

Abu Bakr Kalobodiy merosi hadis, tasavvuf ilmlarini rivojlantirishga, tasavvufni hadis, hanafiya fiqhi bilan mustahkamlash boʻlganiga shubha yoʻq. Allomaning quyidagi fikri masala mohiyatini ochib beradi: “Tasavvufdan bexabarlar uni da’vo qila boshladi, oʻzi bilmagan holda tili bilan uni oʻziga yaqin deguvchilar qilmishlari bilan inkor etishdi. Unga tasavvufdan boʻlmagan narsalarni kiritishdi. Shundan soʻng dillar undan nafratlandi, odamlar undan qochdi. Ilm ham ilmlilar ham, bayon-u insholar ham ketdi”[1] – deb yozadi.

Abu Bakr Kalobodiyning hadis ilmiga boʻlgan ishtiyoqi va uning zohiriy hamda botiniy maʼnolarini sharhlashga qaratilgan soʻfiyona yondashuvi uning hadisishunoslik sohasidagi oʻziga xos jihatlardan biri desa, boʻladi. Abu Bakr Kalobodiyning hadis sohasidagi ishlarining eng koʻzga koʻringani albatta, uning “Bahr al-favoid fi maʼonil axbor”, yaʼni “Xabarlarining maʼnolaridagi foydalar ummoni” asaridir. U oʻz davrining buyuk muhaddislaridan hadislar tinglagan, hadislar maʼnosini anglagan. Manbalarda Abu Bakr Kalobodiyning hadislarini sharhlashni boshlashi bilan bogʻliq rivoyatlar mavjud. Xoja Muhammad Porso “Faslu-l-xitob” asarida shunday rivoyatlardan birini keltirgan: “Abu Bakr Kalobodiy bir kecha tush koʻradi. Tushida Rasulloh (s.a.v.)ni koʻradi. U zot unga bir toza uzilgan gul hadya qiladi va shu gul soʻlgunga qadar hadislarimni sharhla deb buyuradi. Kalobodiy uygʻonganda u gul qoʻlida edi”[1]. Demak, Abu Bakr Kalobodiyning hadis ilmi bilan shugʻullanishida uning tushida Rasullulloh (s.a.v.) tomonidan qilingan ishora sabab boʻlgan, – deyiladi. Shunga oʻxshash boshqa bir rivoyatda Abu Bakr Kalobodiyning tushida

Muhammad (s.a.v.) unga “Hadislarimni sharhlashda davom et deb qo‘liga qalam berib”, buyurgani keltiriladi. Abu Bakr Kalobodiyning nafaqat tasavvuf allomasi balki, uning hadis olamiga kirib kelishi va hadisshunoslikda o‘ziga xos yo‘li borligi uning hadis ilmiga qo‘shgan hissasini belgilaydi.

Abu Bakr Kalobodiy yuz mingdan ziyod hadisni yoddan bilgan, shu sababdan u o‘z davrida zabardast hadisshunos sifatida ham tanilgan. Uning asarlarining ko‘pi bugungi kungacha yetib kelmagan, ammo ularning aksariyati hadisga oid asarlar bo‘lgan. Jumladan, manbalarda uning “Arba’in fi-l-hadis” (“qirq hadis”), “Amoliy fi-l-hadis” (“hadis haqida qaydlar”), kabi asarlar yozgani va “Ma’oniyyu-l-axbor” (“xabarlarning ma’nolari”) nomi bilan mashhur hadisga oid “Bahr al-favoid” (“Foydalar ummoni”) bu borada yirik asarlaridan hisoblanadi. Mazkur kitobda 222 hadis sharhi keltirilgan bo‘lib, muallif bu hadislarini sharhlash va ulardagi uqtirish qiyin bo‘lgan o‘rinlarni tushuntirish uchun yana 370 hadisni zikr qilgan. Natijada ushbu to‘plamdan hammasi bo‘lib 592 hadis o‘rin olgan [3].

Abu Bakr Kalobodiyning hadis ilmidagi shuhrati shu darajada bo‘lganki, hadis ilmining yirik vakillaridan bo‘lgan Ibn Hajar Asqaloniyning (773/1372-852/1449) “Fathu-l-boriy” (Yaratguvchi tomonidan ochib berilgan ma’nolar)[4] hamda Abdurauf Minoviyning (952/1545-1031/1621) “Fayzu-l-qadir” (“Qodir zotdan taralgan fayz”) asarlarida Abu Bakr Kalobodiy to‘plagan hadislariga tayanishgan.

Abu Bakr Kalobodiyning uslubi hadis naql etilishidan uni to‘g‘ri qabul qilish lozim. Agar hadis mutavotir bir hadis bo‘lsa ham uni ilman qabul qilish va unga amal qilish kerak. Ma’lumki, Payg‘ambar (s.a.v.) davrida hadisni sahobiylar eshitib, yozmasdan unga amal qilishar edi. Chunki hadis Qur‘on oyatlariga aralashib ketmasligi uchun Payg‘ambar (s.a.v.) uni yozishni ma’n qilar edi. Ammo Qur‘on mukammal shaklda nozil bo‘lib, sahifalar holiga keltirib bo‘lingach, odamlar hadisni yozishga ehtiyoj seza boshlashdi.

Chunki Payg‘ambar (s.a.v.) vafotidan keyin tobe’inlar davrida har xil fitnalar va shular qatorida Payg‘ambar (s.a.v.) aytmagan yolg‘on hadislarini kiritish hollari yuz berdi. Tobe’inlar davrida u qadar ko‘p hadis yozilmadi. Taba’a tobe’inlar va ulardan keyingi asrda yashagan olimlar hadisni chuqur o‘rganib, uni darajalarga bo‘lib, kitob shaklida yoza boshlashdi. Buning barobarida hadis rivoyat qilishda asos bo‘lgan jarh va ta’dil ilmi ham kelib chiqdi. Hijriy IV asrga kelib hadis va hadisga taalluqli bilimlar mukammal va alohida ilm tusini oldi. Endi hadislar sanadi, roviyi va matniga qarab darajalarga bo‘lindi. Hadis ilmi olimlari Rasululloh (s.a.v.)dan deb rivoyat qilingan har bir hadisni darajasiga qarab “mutavotir”, “sahih” va boshqa turlarga bo‘lib, har birining sharti va hukmini bayon qilishdi.

Bu holatga imom Buxoriy va boshqa muhaddislardan rivoyat qilingan “Mendan hadis eshitib, uni yaxshilab yodlab musulmonlarga eshitgandek yetkazgan kishining yuzini

Alloh nuroniy qilsin, zero shunday ham bo‘ladiki, hadisni eshitgan kishidan ko‘ra uni eshitgan odam yaxshiroq olim bo‘lishi mumkin”, – degan hadis hamda imom Buxoriy rivoyatida kelgan, “Mendan bir so‘z yoki kalima eshitgan bo‘lsangiz, uni albatta boshqalarga yetkazing”, – degan hadis va boshqa shu mazmunda aytilgan hadislar keyingi ulamolarga hadislarni to‘plash, ularni kitobat qilish va majmualar tuzish huquqini berdi.

Abu Bakr Kalobodiy bu hadislarni o‘z davrining buyuk kishilaridan eshitganiga shubha yo‘q. Balki ushbu hadislariga tayanib o‘zining “Bahr al-favoid” to‘plamini yaratgan, deyishga ham asos bor.

Abu Bakr Kalobodiy ohod hadis aytilganda o‘sha zamonda qabul qilish kerak uni ilman qabul qilinmaydi, deydi. Uning fikriga ko‘ra bir hadisga amal qilmaslik u hadisni inkor etish va rad etish bilan barobar. Hadisni rad etish, uni rivoyat qilgan imomni yolg‘onchiga chiqarish bilan barobardir.

Alloma hadislarning zohiriy va botiniy ma‘nolarini tushunishga e‘tibor bergan. Zohiriy va botiniy ilm orasidagi farq, ya‘ni o‘ziga xoslik bir risolada quyidagicha sharhlanadi: “Zohir ilmi, Rasullulloh (s.a.v)ga qadar majmuadan majmuaga o‘tib kelgani bois shubhadan xoli emas. Botin ilmi esa “O‘z tarafimizdan unga xos (laduniy) ilm bergan edik” [5] (“Kahf”, 65-oyat) ilohiy hukm bo‘yicha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Allohdan olingani uchun shubhadan xoli. Shuningdek, botin ilmidan bahs yuritilgan kitoblarning hammasi oyat va hadislariga asoslangan.

Abu Bakr Kalobodiy yetuk mutassavif bo‘lganiga ko‘p olimlar ittifoq qilishgan. Biroq olimni hadis ilmida o‘z davrining muhaddislari qatorida kam tilga olinadi.

Abu Bakr Kalobodiyning hadis ilmiga bag‘ishlangan “Bahr al-favoid” asarida payg‘ambar (s.a.v.) xulqi haqidagi “Husni xulq” mavzusiga doir hadislarni jamlagan. Hadislarning hikmat va nozikligi ustida qilgan ishi sanadli bo‘lib, zikr etgan hadislarni oyat, hadis va sahoba so‘zlari, arab urf-odatlar, darbi masal, she‘r va sufiy so‘zlari bilan izohlagan. Hadis sharhida ham Abu Bakr Kalobodiy diniy haqiqatchilik va ratsionallikdan ajralmagan.

Quyida Abu Bakr Kalobodiyning hadis sohasidagi asosiy ustoz-shogirdlik haqidagi ma‘lumotlari uning o‘rta asr Buxoro hadis ilmi muhitidagi o‘rnini belgilash imkonini beradi.

1) Abu Sa‘id Hotam ibn Aqil ibn Muhtadiy Maroriy Lu‘luy (vaf. 333 yil zu-l-qa‘da / 945 yil iyun-iyul) [6]. “Bahr al-favoid” asarida mazkur shayxdan 108 ta hadis rivoyat qilingan [7]. Hotamning biografiyasi haqida ma‘lumot bergan Sam‘oniyga ko‘ra esa, (“Al-Ansob”) arabcha “maror” so‘zi “kanopdan to‘qilgan ip sotuvchi” ma‘nosini bildiradi. Bundan murod uning ip savdosi bilan shug‘ullanganidir. “Lulu‘iy” esa Hotam ibn Aqilning qimmatbaho tosh (lu‘lu‘) savdosi bilan ham shug‘ullanganiga ishoradir.

“Al-Ansob”da Hotam Maroriyning uch nafar shayxdan hadis rivoyat qilgani va Abu Nasr Muhammad Malohimiyga (312-395 y. 7 sha’bon / 924-1005 yil 18 may) ustozlik qilgani aytiladi [8. 422]. E’tiborli jihati Maroriy shogirdlari qatorida Abu Bakr Kalobodiy ismi keltirilmagan.

2) Nasr ibn Fath Samarqandiy [9]. To’liq ismi Abu-l-Lays Nasr ibn Fath Murabba’iy Ishtixaniy Samarqandiy bo’lib [10], Abu Bakr Kalobodiy u orqali 60 ta hadis rivoyat qilgan [11]. “Ishtixoniy” bugungi Samarqand viloyatidagi Ishtixon shaharchasiga nisbatan aytiladi. “Al-Ishtixoniy” nisbasi ostida keltirilgan boshqa olimlar haqidagi ma’lumotlarning tahlili esa yanada ko’proq ahamiyatga ega. III-IV/IX-X asrlarda ishtixonlik olimlarning ishonchli (*sahih*) hadislarni o’rganishga qattiq sa’y-harakat qilishgani ma’lum. Ishtixonlik olimlar birinchi navbatda “As-sihoh as-sitta” turkumiga kiruvchi asarlar rivoyati bilan mashg’ul bo’lishgan.

Samarqanddagi mashhur “al-Murabba” rabotida faoliyat olib borgani uchun esa Nasr Murabba’iy nisbasi bilan ham tanilgan [12]. Uning shogirdlaridan biri Ibn Hibbon (270-354/883-965) edi [13].

3) “Kashf al-osor” muallifi, X asr hanafiylari o’rtasida “Ustoz” laqabi bilan shuhrat qozongan Subazmuniydan 52 ta hadis rivoyat qilinadi. “Kashf al-osor”ni nashr etish va keng ilmiy muomalaga kiritish X asr Buxoro muhaddislari, shu jumladan Abu Bakr Kalobodiyning tarbiyalab voyaga yetkazgan ilmiy muhitni yanada kengroq tushunishda ahamiyatlidir. Manbashunos D.Murodovning maqolasida Subazmuniyning ilmiy merosiga atroflicha baho berilgan [14].

4). Noshir Vajih Zakiy “Abd al-Aziz ibn Ahmad ibn Ibrohimdan 51 ta hadis rivoyat qilingan”, deya ma’lumot beradi (18-sahifa). Biroq, asar matnini o’rganish jarayonida bunday ismli roviyga duch kelinmadi. Ayni paytda, biografik manbalarda ham Abd al-Aziz ibn Ahmad ibn Ibrohim ismli shaxs uchramaydi.

5) Abu-l-Fazl Muhammad ibn Mahmud [Ahmad] qozi Mardakiy [15]. “Bahr al-favoid”dagi ilk hadis Mardakiy vositasida rivoyat qilinadi. “Al-Ansob”da Abu-l-Qosim Nasr Sobariy (vaf. 372/982-83 y.)ning ustoz va Abu Solih Sharg’iyni (vaf. 272/885-86 y.) shogirdi Mardakiyning zikr qiladi [16]. Ushbu muhaddis Abu Bakr Kalobodiyga ustozlik qilgan.

“Bahr al-favoid” asarida hadislar quyidagi silsila orqali rivoyat qilingan: Abu Bakr Kalobodiy – Mardakiy – Muhammad ibn Iso Tarsusiy. Tarsusiydan ayni paytda Rashodiy ham rivoyat qilgani ma’lum.

6) Xalaf Xayyom Buxoriy. Uning to’liq ismi Abu Solih Xalaf ibn Muhammad ibn Ismoil Xayyom (275-361 y. / 888-972 y. fevral-mart) bo’lib, Buxoro muhitidagi taniqli hadis roviylaridan biri [17]. Xalaf chodir tayyorlash kasbi bilan shug’ullanagani sababli xayyom (arabcha “xayma” “chodir”) laqabini olgan.

Abu Sa’d Sam’oni “al-Ansob”da Xalaf Xayyomga oid bo’lgan ilmiy muhit haqida ko’p ma’lumot keltirgan [18].

7) Abu Muhammad Ahmad ibn Abdulloh Muzaniy (Buxoroda 356 yil ramazon / 967 yil avgust-sentyabrda vafot etgan) [19]. Undan 23 hadis rivoyat qilingan. Asli xirotlik bo'lgan Muzaniy ulug' shayx (arabcha *ash-shayx al-jalil*) laqabi bilan mashhur bo'lgan.

8) Muhammad ibn Abdulloh Buxoriy (360 yil 22 shavvol / 971 yil 17 avgust, dushanba kuni vafot etgan) (undan 20 ta hadis rivoyat qilingan). Uning to'liq ismi Abu Ahmad Muhammad ibn Abdulloh ibn Yusuf ibn Savvor ibn Misma' ibn Sobit Bazzoz Buxoriy bo'lib, hajga ketayotib Bag'dod shahriga kirgani ma'lum [20]. Bazzoz shofiiy mazhabiga ko'ra amal qilgan bo'lib, uning ustoz va shogirdlarining barchasi Markaziy Osiyolik olimlardan iborat bo'lgan.

“Bahr al-favoid” noshirlari “Lison al-mizon” (7-jild, 259-60-sahifalar, № 7023) va “Mizon al-i'tidol”da (7-jild, 217-18-sahifalar, № 7815 [7666]) zikr qilingan ayni ismli Mahriy Basriyni Abu Bakr Kalobodiy ustozi deb hisoblashadi [21].

9) Abu Nasr Moymurg'iy [22. 184]. Olimning to'liq ismi Abu Nasr Ahmad ibn Ali Moymarg'iy bo'lib, muqri' va zarir laqabi bilan mashhurdir. Muqri' so'zi arabcha aqra'a (o'qitmoq) so'zining sifatdoshi bo'lib, “hadis o'qituvchisi” mazmunini bildirgan. “Zarir” so'zi esa ko'zi ko'rmaydigan ma'nosini bildiradi. Moymarg'iy nisbasiga asoslangan holda uning Buxoro va Nasaf o'rtasidagi Moymarg' qishlog'ida tug'ilganini taxmin qilish mumkin.

10) Abu-n-Nazr Rashodiy (vaf. 339/950-51 y.). Samarqandlik bu muhaddisning to'liq ismi Abu-n-Nazr Muhammad ibn Ishoq ibn Rashod Rashodiy Samarqandiy bo'lib, ishonchli (siqa) roviy hisoblangan [22. Volume 3, page 67]. Abu Abdurahmon Omuliydan (vaf. 269 y. rabi' II / 882 y. oktyabr-noyabr) hadis rivoyat qilganiga asosan uning kichik yoshidan boshlab ilm olishga kirishgani ma'lum bo'ladi [23]

11) Abdualaziz ibn Muhammad Marzubon. To'liq ismi Abu Ahmad Abdulaziz ibn Muhammad Marzuboniy bo'lib, Sam'oniylarning o'g'li haqida ma'lumot beradi. Uning o'g'li Abu Solih Ahmad (vaf. 996 y. iyun-iyul) ham olim bo'lib, 351-53/962-64 yillar orasida ma'lum muddat Samarqand amiri Bektoshga o'rinbosarlik qilgan [22. 256].

12) Abu Hotam Muhammad ibn Umar ibn Shozuya haqida ma'lumot uchramadi. Sam'oniylarning buxorolik muhaddisi, “Xanb” laqabli Mostiniy (218-301/833-914) haqida ma'lumot berar ekan, undan hadis rivoyat qilganlar sirasida Ibn Shozuyani ko'rsatadi [22. 167-168]

Ismi zikr qilingan olimlardan tashqari yana quyidagi shayxlar Abu Bakr Kalobodiyga ustozlik qilishgan – Abu-l-Husayn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim Forisiy [24], Abu Nasr Muhammad ibn Hamduya Marvaziy Foziy (vaf. 329/941 y.) [22. 327], Muhammad ibn Ahmad Bag'dodiy [25], Ali ibn Muhtoj [25. 208], Abu Bakr Muhammad ibn Ya'qub ibn Yusuf Baykandiy [25. 290], Muhammad ibn Hotam ibn Sa'id Boykandiy [25. 242], Abu-n-Nazr Sog'arjiy [26], Abu Muhammad Ahmad ibn Ubaydulloh [26. 264], Abu Bakr Muhammad ibn Abdulloh ibn Yazdoz Roziy faqih [26. 214], Abu Bakr Muhammad ibn Abdulloh ibn Yusuf Umoniy Naysoburiy.

Biografik manbalardagi Abu Bakr Kalobodiy shogirdlari haqida ma'lumotlarni ham cheklangan, deya xulosa qilish mumkin. Bu masalani oydinlashtirishda "Bahr al-favoid"da "*mendan hadis eshitdi*" deya eslatilgan roviylar haqida ma'lumot yig'ish foydalidir. Ushbu tadqiqot uslubini qo'llashda hozircha faqat bir nafar roviy ismi aniqlandi: Ali ibn Ahmad Xanbojiy. Buxorolik bu olimning to'liq ismi Abu-l-Hasan Ali ibn Ahmad ibn Xanboj ibn Yunus Tamimiy Xanbojiydir[26. Volume 2, page 403].

Abu Bakr Kalobodiyning ustozlari hayotini chuqurroq o'rganish Markaziy Osiyoda, xususan X asr oxirida Buxoroda hadis maktabi faoliyat olib borgan haqida dastlabki ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'ladi.

Xoja Muhammad Porso Abu Bakr Kalobodiyini o'ziga ustoz deb bilgan uning asarlaridan iqtiboslar keltirgan: "Faslu-l-xitob" asarida "Bahr al-favoid"da keltirilgan hadis iqtibos qilingan: Rasululloh (s.a.v.): "Mo'minlarning imoni komili chiroyli xulqlisidir. Men sizlarning chiroyli xulqligingizman ahli ayolimga", – dedilar. Amallar odatlar bilan qiziqish va qo'rqish bilan bo'ladi. Axloqlar tabiiy bo'ladi uni riyozat bilan tarbiya bilan tuzating, poklang. Agar axloq sog'lom bo'lsa va poklangan bo'lsa (yaxshi) chunki u niyati to'g'ri kishidagina foyda beradi. Uning o'zga (asli) toza bo'lsa tabiati chiroyli bo'lsa asli pok bo'lsa shunda foyda qiladi. Bas safar agar rozilik bilan bo'lgan bo'lsa ham bas albatta unga eng asl yaxshisi ixtiyor qilinadi. Nabiy (s.a.v.): "Riyozat to'g'ri bo'lmaydi. Nopok kishida amallar sahih bo'lmaydi. Dindor amalli kishida riyozatdan maqsad loyiq bo'lgandek qilish. Aslida bo'lmagan narsani kiritish riyozat emas. Albatta u aslida bor narsani isloh qilish, rahmat yumshoqlik bo'lish tabiiydek qo'pollik va o'ta qo'pollik ham har bir lahza har bir vaqtda bo'ladi.

Abu Bakr Kalobodiy fikriga ko'ra:

1. Hadislarga Qur'onning mutashobeh oyatlariga ishongandek, ishonish kerak.
2. Rasululloh (s.a.v.) so'zlariga imon keltirish, bu yo'nalishda Ali va Ibn Abbosdan o'rnak olish kerak.

Abu Bakr Kalobodiy muhkam va mutashobeh bilimlar fazilatlaridan fazilatli bo'lgan olimlarni va kibrlanganlardan farosatlarini ajratgan.

Bunda hadislarni eshitgandan so'ng uni inkor etmasdan imon keltiriladi. Taslim bo'lib qabul qilinadi. Xabar ko'rmoq kabi deydi. Rivoyat sharhiga ko'ra sodiq xabarni ikkiga bo'ladi:

1. Alloh va Uning Rasuli xabarida bo'lganidek xabar berganga xato va esdan chiqarmoq va tushirib qoldirilmaydigan xabar.
2. Alloh va Uning Rasuli tushlariga kirgan xabarlar bo'lib xabar bergan kishilar haqida unutish, xato va tushirib qoldirish joiz.

Xoja Muhammad Porsoning "Faslu-l-xitob" asaridagi xuddi shu holatni izohlovchi mulohazalar ushbu fikrni yanada oydinlashtiradi. Shayxu-l-imom valiy orif Abu Abdulloh

Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy aytadi Payg‘ambarlar ilmdan yuqori darajalarda va g‘ayb xabarlaridan boxabar bo‘lish bilan o‘zlari va xalq o‘rtasida bo‘ladigan ishlarda muammoga duch kelishadi. Hatto ularning yo‘llariga ko‘ra muomala qilishga majbur bo‘lishadi. Rasululloh (s.a.v.)ga erta-yu kech vahiy kelar edi lekin u kishiga (ro‘za) oyini hilolini ko‘rish muammo bo‘lgan edi. Bir guvoh ko‘rdi, ro‘zada, fitr og‘iz ochish hilolini esa ikki a‘robii ko‘rishdi. Ular guvohligi qabul qilindi va aytishdi: “Ba‘zingiz ba‘zingizdan hujjat bilan kuchliroqsiz. Albatta, sizlardan eshituvchirog‘ingiz hukm qiluvchirog‘ingizdir. Bas, kimga birodarini haqqidan biror narsaga hukm qilinsa, albatta u do‘zaxdan bir parcha o‘tdan kuydiruvchiroqdir”, – dedilar. Bir so‘z bilan aytganda Qur‘on oyatlarida sahih hadislarida sahobiylar payg‘ambar (s.a.v.)dan keltirgan hadislarida tariqat shayxlari so‘zlarida ham mutashobih (tushunish qiyin bo‘lgan oyatlar) kalomlar ko‘p uchraydi. Ahli basirat aytishgan mutashobihning keltirilishi yo‘lni tekshirish zarurati tug‘ilganidandir. Shuning uchun payg‘ambarlar mukoshafa ilmida ramzlar, imo-ishoralar, tamsillar va qisqa ifodalash ijmol orqali gapirishdi. Chunki, ular avomni (oddiy kishilar) fahmlari bu ma’nolarga yetmasligini va ba’zi xoslar ham tushunmay qolishi mumkinligini bilib shunday qilingan. Olimlar, ulug‘lar payg‘ambarlarning merosxo‘ri ekani nuqtai nazardan ularga ergashish yo‘lida afsuslanib qolmaslik kerakligi e’tiborga olingan. Alloh aytadi: U senga kitobni tushirgan zotdir, unda muhkam oyatlar ham bor. Ular kitobni aslidir. Mutashobih (oyatlar) ham bor [27]. (Oli-Imron surasi 7oyat). “Tashtabihu [28]” ham deyiladi. Uning ma’nosi parvardigorning xitobini bilmagan tushunmagan kishiga nisbatan ishlatiladi. Muhkomat esa asldur. U tufayli “Tavhid” ilmiga yetiladi. Mutashobih oyatlar ta’vil qilinadi. ”Muhkam” deyilgani Allohning sifatlariga ya’ni ilmi qudrati, eshitishi, ko‘rishi va boshqa sifatlariga dalolat qiladi. Mutashobih esa uning zohiridan qaysidir yo‘sinda uni ta’vil qilish zarurligini bildiradigan narsadir. Masalan: “Uni qo‘lim bilan yaratdim” [27] (Sod surasi 75 oyat) “Bizning inoyatimiz (ko‘z o‘ngimizda) suzuvchi kema”. (Qamar surasi 14- oyat) va shunga o‘xshash oyatlardagi so‘zlarni ta’vil qilishi lozim. Uning ta’vilini faqat Alloh biladi”. (Oli-Imron surasi 7 oyat). Ulardan ba’zilari shu joyda to‘xtashgan va mutashobihni ta’vilini faqat Alloh va ko‘p ahli ilmlar bilishadi, – deyishgan.

Ilmda (Ilmu Rosixun) kuchlilar mutashobehni ma’nosini bilishadi. Aytadilar: Agarda kuchlilarda mutashobeh ilmi haqida nasiba bo‘lmaganida ular aytgan bo‘lardi “Biz unga ishondik, ularning hammasi robbimiz huzuridandur” [27] (Oli-Imron surasi 7oyat). Agar bilmaganlarida edi, nodonlar bilan ular o‘rtasida farq-fazl bo‘lmas edi. Chunki, nodonlar hammasi shu gapni aytishadi. Albatta Alloh mutashobih ilmida bandalarini teng qilmadi. Aytdi: “kim mutashobeh oyatlarni nozil bo‘lishiga ishonsa va yetarli e’tiqod qilsa, u bilan xalqning kalta fahmidan to‘xtatish iroda qilinmaydi. Shu bilan birga ularga bilish uchun yo‘l ham berilmaydi”. So‘ngra, albatta Qur‘on ma’noda hammasi mahkum oyatlardir. Ma’nolari puxta unga bir-biriga qarama-qarshilik yo‘q. Alloh aytadi: “Alif Lom Ro (bu) oyatlar mustahkam (qat’iy qilingan) kitobdir”. Bularning

hammasi ma'noda mutashobih ma'nolari bir-biriga muvofiq keladi va bir-biriga o'xshaydi. Alloh aytadi: Alloh go'zal so'zni (oyatlari balog'atda) bir-biriga o'xshagan (hukmlari) takror-takror keluvchi bir kitob (Qur'on qildik-ki, Ba'zisi, muhkam ba'zisi, ma'noda mutashobih mana bu oyatdan tushunilganidek: U alloma Najmiddin Abu Hafs Nasafiyning tafsirida va Imom Muhammad ibn Tayfur Sajovandiyning "Aynul ma'oniyy" asarida keltirilgan: "Alloh so'zi buning ta'vilini faqat Alloh va ilmi kuchlilar bilishadi oyatiga biri "atf" [29]desa, ba'zilari "hol" deyishgan. Ibn Abbosni so'zi shunga "haml" qilinadi. U kishi ilmida kuchlilardan deydi. Mujohid aytadi: men ta'vilni biladiganlardanman. Ibn Jurayh esa "mutashobehni bilishga yo'l yo'q", deydi. Banda o'z e'tiqodi to'g'riligi haqida sinovda, boshqacha emas. Yuz, qo'l va barobar bo'lish sifatlariga o'xshash. Aytilgan "mutashobih" bu ma'nosiga loyiq bo'lmagan lafzini o'xshashligi uchun aql qulog'i unga xilof keladi.

Demak, Abu Bakr Kalobodiy hadis ilmida o'z yo'liga va uslubiga ega alloma sifatida hadis ilmiga o'z hissasini qo'shgan. Uning, yondoshuviga e'tibor qaratilsa, inson tushida Rasululloh (s.a.v.)ni ko'rsa, xabar eshitsa, uni qabul qilish va amal qilish joiz deb hisoblaydi. Tadqiqotlarda bu holatni Kalobodiyning o'zi bilan sodir bo'lgan tushida Rasululloh (s.a.v.)dan hadislarni sharhlash bo'yicha ishora olgani bilan ham bog'lashadi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Bakr Kalobodiy o'z davrida faqih, usulchi, muhaddis, zohid kabi sifatlariga ega bo'lgan alloma darajasida manbalarda tilga olinadi. Bu uning ilmiy yo'nalish va sohalarini bilish imkonini beradi;

Abu Bakr Kalobodiy Buxoroda X asrda tasavvuf bilimdoni, nazariyotchi olim darajasiga ko'tarildi. Buxoroda tasavvuf nazariyasining tamalini qo'yishga va uni tizimlashtirishga ulkan hissa qo'shdi. Bu bilan u tasavvuf nazariyasi asoschilaridan biri maqomiga erishdi;

Abu Bakr Kalobodiy nafaqat tasavvuf balki o'z davrining barcha ilmlarini ustozlaridan, shayxlaridan o'rgandi. Bu bilan kifoyalanmasdan hadis ilmida ham o'ziga xos yo'l tanlab o'zining Bahr al-favoid asari bilan hadis imi rivojiga munosib hissa qo'shdi;

Hadis va hadis sohiblari tasavvuf va tasavvuf olimlarining ilmlari ularning amaliga mosligi, hadislarining sahihligi, roviylarning adolati jarh va ta'dil masalalariga ham o'ziga xos oydinlik kiritdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абу Бакр Калободий. ат-Таъарруф. Отакул Мавлонкул ўғли ва Мавлуда Отакул қизи таржимаси. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2002. – Б. 13.
2. Муҳаммад Порсо. Фаслу-л-хитоб. Қўлёзма. Бухоро: Когон, нақшбандия тариқати музейи фонди. Инв.42. 1443. – Б. 59
3. Ал-аълам. 5-ж. – Б. 295; Баҳра-л-фавоид. 1-ж. – Б. 48.
4. Ибн Ҳажар Асқалоний.Фатҳу-л-Борий (араб тилида).1-ж. – Байрут. 1408/1988. – Б. 159.

5. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири.// таржима ва изоҳлар муаллифи. Абдулазиз Мансур. – Т.: Мовароуннаҳр, 2018. – Б. ???
6. ал-Икмол, 6-жилд, 238-саҳифа; ал-Ансоб, 5-жилд, 248-саҳифа.
7. Баҳра-л-фавоид (Қоҳира нашри), 116 ва кейинги саҳифалар.
8. ал-Ансоб, 5-жилд, 422-саҳифа
9. Мизона-л-иътидол, 7-жилд, 23-саҳифа (№ 9048 [8853]).
10. Лисона-л-мизон, 8-жилд, 265-66-саҳифалар (№ 8123); ал-Ансоб, 1-жилд, 164-саҳифа.
11. Баҳра-л-фавоид (Қоҳира нашри), 120 ва кейинги саҳифалар.
12. ан-Насафий, ал-Қанд, 80, 230-саҳифалар.
13. Саҳиҳ Ибн Ҳиббон, 14-жилд, 210-саҳифа (№ 6302).
14. Д.Муродовнинг номзодлик ишида Субазмуний ҳақида батафсил маълумот берилган: Абдуллоҳ Субазмунийнинг “Кашфа-л-осор” асари ҳадис илмига оид манба. – Тошкент ислом университети, 2008 й.
15. Баҳра-л-фавоид, Сараево (Босния) кутубхонаси қўлёзма нусхаси, 286 б; ал-Икмол, 1-жилд, 295-саҳифа.
16. ал-Ансоб, 3-жилд, 506-саҳифа [“Собарий” нисбаси Марвдаги Собар кўчасига нисбатан қўлланган]; 5-жилд, 415-саҳифа.
- 17.
18. Ибн Ҳажар Асқалоний, Лисона-л-мизон, 3-жилд, 372-саҳифа (№ 2968); ал-Ансоб, 2-жилд, 427-28-саҳифалар.
19. ал-Ансоб, 1-жилд, 29, 65, 68, 133, 155, 216, 228, 244, 322, 411, 453, 458 ва бошқа саҳифалар.
20. ал-Ансоб, 5-жилд, 278-79-саҳифалар; Тарих Бағдод, 5: 44 (№ 2403).
21. Тарих Бағдод, 3-жилд, 487-88-саҳифалар (№ 1017).
22. Баҳра-л-фавоид, 19-саҳифа.
23. ал-Ансоб, 5-жилд, 184-саҳифа; “ал-Қанд”да маълумот учрамади.
24. ал-Қанд, 312-саҳифа (№ 498).
25. Суламийнинг “Табақота-с-суфийя”си шарҳи, 379-саҳифа.
26. Баҳра-л-фавоид, Сараево (Босния) кутубхонаси қўлёзма нусхаси, 285 б; ал-Ансоб, “ал-Ҳашиний”.
27. ал-Ансоб, “ас-Сог‘аржий” банди.
28. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири.// таржима ва изоҳлар муаллифи. Абдулазиз Мансур. – Т.: Мовароуннаҳр, 2018. – Б. ???.
29. Ташатабиҳу муҳкам мутошобиеҳ тафсир ва таъвил.
30. Atf haml hol Rosix-ilmda kuchlilar.